

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA AXLOQIY TARBIYANING NAZARIY ASOSLARI

Mamedova Maftuna Muhidinovna

Kosimova Manzura Abdullayevna

BuxDU Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchilari

Annotatsiya: *Axloqiy tarbiyada kishi axloqiy bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay, har qanday vaziyatlarda o'zini ana shu normalarga munosib tuta oladigan kishilar axloqiy tarbiyalangan hisoblanadi. Axloqiy tarbiyalangan kishida barqaror ma'naviy motivlar shakllangan boladi.*

Аннотация: *В нравственном воспитании нравственно воспитанным считается человек, который не только усваивает нравственные знания, но и ведет себя согласно этим нормам в любой ситуации. Нравственно воспитанный человек имеет устойчивые нравственные мотивы.*

Annotatsiya: *In moral education, a morally educated person is considered to be a person who not only acquires moral knowledge, but also behaves according to these norms in any situation. A morally educated person has stable moral motives.*

Kalit so'zlar: *Tarbiya, axloq, odob, bilim, ko'nikma.*

Axloq so'zi - lotincha «myeros», ya'ni moral, mantiq so'zidan kelib chiqib, u hech qayerda qat'iy yozib qo'yilmagan ijtimoiy qonundir. Inson kundalik hayotida undan axloq normalaridan norma sifatida foydalanadi. Axloqiy tarbiya normalari har bir jamiyatning huquqiy normalariga asos bo'ladi. Axloqiy tarbiyada kishi axloqiy bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay, har qanday vaziyatlarda o'zini ana shu normalarga munosib tuta oladigan kishilar axloqiy tarbiyalangan hisoblanadi. Axloqiy tarbiyalangan kishida barqaror ma'naviy motivlar shakllangan boladi. Bu motivlar esa o'sha kishini jamiyatda munosib xulq-atvorga rag'batlantiradi. Yosh avlodni jamiyatga, mehnatga, o'ziga munosabatni ochib beruvchi ma'naviy fazilatlarga muvofiq ravishda tarbiyalash tarbiyalanuvchi shaxsni, axloqiy tarbiyaning pedagogik va psixologik asoslarini chuqur bilishni talab qiladigan murakkab jarayondir. Axloqiy bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirib olishgina o'quvchilarga atrofdagi kishilar xatti-harakatidagi qaysi jihatlar yaxshi-yu, qaysilari yomon ekanligini anglab olishga yordam beradi.

Axloq odamlarning bir-biriga, jamiyatga, davlatga, xalq mulkiga, oilaga munosabatini muayyan tartibga soladigan xatti-harakat qoidalari tizimida namoyon bo'ladi. Axloq - kishining ichki olami, e'tiqodi, fazilatlari sifatida mavjud bo'ladi. Qadimgi faylasuflar-u, donishmandlar ijodida odob-axloq malasalari markaziy o'rinni egallab kelgan. Axloq-odobni jamiyatning «poydevori» deganlar. Shuning uchun jamiyatning har bir a'zoning xulqi-odobiga alohida e'tibor bilan qaraladi.

sarkarda sifatida odamlarni ishga tayinlashda ham, vazifasidan ozod etishda

ham shoshma- shosharlik va adolatsizlikka yo'l qo'ymagan. Amir Temur sin- gari jahon ma'naviyati saltanatida o'z o'rinlariga ega bo'lgan buyuk bobokalonlarimizning axloq, go'zal xulq haqidagi fikrlari bugungi kun talabi bilan yozilgandek tuyuladi.

Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etgan yodgorliklar orasida Xorazm vohasi hududida yaratilgan be- baho ma'naviy obida «Avesto» kitobi alohida o'rin tutadi. Ana shunday o'lmas asori-atiqalar bu ko'hna o'lkada, bugun biz yashab turgan tuproqda qadimdan buyuk madaniyat mavjud bo'lganidan guvohlik beradi. «Avesto»ning tub ma'no- mohiyat- ini belgilab beradigan «Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal» degan tamoyilni oladigan boisak, unda hozirgi zamon uchun ibrat bo'ladigan axloqiy saboqlar borligini ko'rish mumkin.

Ma'lumki, har bir xalqning o'z afsonaviy qahramonlari, pahlavonlari boiadi. Shu ma'noda xalq og'zaki ijodining noyob durdonasi bo'lmish «Alpomish» dostoni millatimizning o'zligini namoyon etadigan, avlodlardan avlodlarga o'tib ke- layotgan qahramonlik qo'shig'idir. Bu mumtoz asarda tarix to'fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o'zligini saqlagan, el-yurtimizning bag'rikenglik, matonat, olijanoblik, vafo va sadoqat kabi axloqiy fazilatlari o'z ifodasini topgan. Shu bois «Alpomish» dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlari- dan saboq beradi⁴².

Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» kitobining «Haqqoniyat» deb atalgan bobida rostlik va to'g'riso'zlikni insonning eng insoniy sifatlaridan biri deb hisoblaydi. U bola tarbiyasida o'sayotgan shart-sharoit va tarbiyaning rolga alo- hida e'tibor beriladi. A.Navoiy ijodida ham axloq-odob masalalariga katta ahamiyat berilgan. «Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha odamlar uchun yoqimlirog'idir» - deydi mutafakkir A.Navoiy. A.Navoiyning «Mahbub-ul qulub» asarida odob, axloqqa oid g'oyalar ilgari surilgan. Insonparvarlik g'oyalari ulug'angan.

Pedagogika fani yosh avlodni axloqiy rivojlanishida tarbiya va taiimni muhim omil deb hisoblaydi. Pedagogika va ruhi- yatga oid tadqiqotlar natijalarining ko'rsatishicha, Maktabgacha ta'lim davri bolaning ma'naviy shakllanishida eng muhim bosqichidir. Shu davrda ma'lum maqsadga qaratilgan taiim- tarbiya ta'sirida shaxsning axloqiy sifatlari shakllana boshlaydi. 6-7 yoshda ijobiy xulq normalarining ancha barqaror shak- li yuzaga keladi. Bola atrofdagilar bilan bo'ladigan munosabat- larida egallab olgan axloq normalariga asoslangan holda ish tutadigan bo'lib qoladi. Shuning uchun bolalarga ilk yoshdan boshlab axloqiy tarbiya berib borish muhimdir.

Shaxsning muhim ma'naviy sifatlari bo'lgan axloqiy ong, hissiyot va xulqni shakllantirish, vatanparvarlik, vatanga mu- habbat, O'zbekiston gerbi, bayrog'i, madhiyasiga hurmat, insonparvarlik, mehnatga munosabat, jamoa bilan birgalikda qilinadigan izlanishlarga munosabat, ongli intizom va boshqa tuyg'ularni kamol toptirish axloqiy tarbiyaning asosi hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi

bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi. Axloqiy bilim berish bir qancha tarbiyaviy vazifalarni bajaradi, inson hayoti va madaniyatining axloqiy qadriyatlari to'g'risida keng tasavvur, tushunchalar beradi. Axloqiy tasav- vurlar, qarash, mulohaza, baho berish kabi tushunchalarni shakllantirishga va shu asosda axloqiy e'tiqodni yuksaltirish- ga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni:

Bolalarni o'zlarining axloqiy tajribalarini mushohada qilish- lari va boyitishlariga yordam beradi. Shaxsni o'zini axloqiy tarbiyalashga zamin yaratadi. Axloqiy bilim, asosan axloqiy suhbatlar, ma'ruzalar, kecha- lar, turli kasb egalari bilan uchrashuvlar va boshqa vositalar bilan amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim-tashkilotida axloqiy tarbiya berish har xil vositalar yordamida amalga oshiriladi. Birinchi galda bolalarni har xil faoliyatlar vositasida kattalar mehnati bilan tanishtirish, mashg'ulotlarda va mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda ta'lim berish orqali amalga oshiriladi.

Har xil bayramlar, ijtimoiy hayot voqealari, bolalar adabi- yoti, musiqa, o'yin materiallari, ommaviy axborot vositalari oynayi jahon, radio va boshqalar bolalarning axloqiy tarbiya- siga katta ta'sir ko'rsatadi. Kichik yoshli bolalar axloqiy tasavvur va bilimlarni faqat o'yin mashg'ulotlarida yaxshi o'zlashtirib oladilar. Bolalar tomonidan o'zlashtirib olingan axloqiy tasavvurlarni ular ongli ravishda tushunib yetishlari dastlab mashg'ulotlarda, keyinchalik o'yin, mehnat jarayonlarida, sayrda, mustaqil faoliyatlar orqali amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga axloqiy tarbiya berishda har xil metod va usullarni qo'llash muhim ahamiyatga egadir. Axloqiy tarbiya metodlari bolalarning axloqiy tasavvur va bilimlarni egallab olishga qaratilgan faoliyat usulidir. Bolalarning yaxshilik, yomonlik to'g'risidagi tasavvurlarini e'tiborga olish; axloqiy xulq-atvor normalarini muhokama qilish uchun maxsus yaratilgan vaziyatda bolalarning o'zlarini faol qatnashtirish; har bir bolaning his-tuyg'usiga ehtiyotlik bilan munosabatda bo'lish haqida fikrlar bildiriladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Mamedova, M. (2022). MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALAR IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH. *ILMIY NASHRLAR MARKAZI (buxdu.Uz)*, 8(8).
2. Mamedova M. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOY XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYANING O'RNI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
3. Mamedova M. M. TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O 'RNI //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1230-1234.
4. Muhidinovna M. M. Preschool Education System and Family Cooperation in the

Formation of Social Characteristics //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 267-270.

5. Muhidinovna, Mamedova Maftuna. "Preschool Education System and Family Cooperation in the Formation of Social Characteristics." *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION* 2.2 (2022): 267-270.

6. Muhidinovna, M. M. (2022). Preschool Education System and Family Cooperation in the Formation of Social Characteristics. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(2), 267-270.

7. Hakimova N. S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-huquqiy mehyorlarga hurmat hissini shakllantirish metodlari //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 466-475.

8. Хакимова Н. С. ОБ- РЯДЫ И ОБЫЧЬИ СВЯЗАННЫЕ С РОЖДЕНИЕМ И ВОСПИТАНИЕМ РЕБЕНКА У НАРОДОВ СРЕДНЕЙ АЗИИ //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 67-72.

9. Хакимова Н. С. ОБ- РЯДЫ И ОБЫЧЬИ СВЯЗАННЫЕ С РОЖДЕНИЕМ И ВОСПИТАНИЕМ РЕБЕНКА У НАРОДОВ СРЕДНЕЙ АЗИИ //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 67-72.

10. Mahmudovna N. M. Systemic Approach to Education //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 184-191.

11. Нигматова М. М., Мирзаева Д. Ш. РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСТВА ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА С ПОМОЩЬЮ АРТ ПЕДАГОГИКИ //Вестник науки и образования. – 2021. – №. 14-3 (117). – С. 31-34.

12. Нигматова М. М., Мирзаева Д. Ш. АРТ-ТЕРАПИЯ, КАК СРЕДСТВО АДАПТАЦИИ ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА К ДОО //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 1209-1215.

13. Nigmatova M. RAQAMLI O'YINLAR BOLALARNI O'QITISH USULI SIFATIDA //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.

14. Mahmudovna N. M. et al. FUNDAMENTALS OF USING STEAM TECHNOLOGY IN PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN //International Journal of Early Childhood. – Т. 14. – №. 03. – С. 2022.

15. Нигматова М. М. и др. СПОСОБЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ МАТЕМАТИКЕ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ //Academy. – 2020. – №. 3. – С. 76-78.

16. M.Nigmatova. MAKTABDA YETTI YOSHLI BOLALAR UCHUN MOSLASHUV DARSLARINI TASHKIL ETISH. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ.(buxdu. uz) 22 (22). 2022/10/3

17. M.Nigmatova.BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA MAKTAB VA MTT HAMKORLIGI.ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). 22 (22). 2022/10/3

18. M.Nigmatova.MURAKKAB DUNYO MURAKKAB INSON: TELEVIDENIYE VA INTERNETNING BOLALAR SHAXSIGA SALBIY TA'SIRI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). 22 (22). 2022/10/3

19. M.Nigmatova. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI VA BOSHLANG'ICH TA'LIM O'RTASIDAGI UZVIYLIK. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). 22 (22). 2022/10/3
20. M.Nigmatova. MAKTABGACHA TA'LIM VA UMUMIY O'RTA TA'LIMNING O'ZARO INTEGRATSIYASI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). 22 (22). 2022/10/3
21. M.Nigmatova. TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA UZVIYLIK TIZIMINI YARATISH MEKANIZMLARI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). 22 (22). 2022/10/3
22. M.Nigmatova .Maktabgacha ta'lim tizimida o'yinlar texnologiyasi. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. 2022/7/16. 831-833 bet.
23. Maxmudovna N. M. et al. MAKTABGA TAYYORLOV YOSHI BOLALARINI SHAXSIY KOMPYUTERLARDAN GIGIYENIK TOGRI FOYDALANISHGA ORGATISH //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 2. – С. 153-159.
24. Qo'ldoshev R. CHAPAQAYLIK: MUAMMO YOKI QOBILIYAT //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 22. – №. 22.
25. Qo'ldoshev R. BOSHLANG'ICH SINIF CHAPAQAY O'QUVCHILARGA BERILADIGAN PEDAGOGIK YORDAM VA YOZUVGA O'RGATISH JARAYONIDA FOYDALANILADIGAN TEXNOLOGIYALAR //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 22. – №. 22.
26. Avezmurodovich Q. R., Oybekovna N. D. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING BOG'LANISHLI NUTQINI O'STIRISH. QAYTA HIKOYALASH VA BAYON TURLARI. – 2022.
27. Қўлдошев Р. А. БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЧАПАҚАЙ ЎҚУВЧИЛАРНИ ЁЗУВГА ЎРГАТИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1120-1129.
28. G'afarovna, Jumayeva Habiba. "SAVOD O 'RGATISHGA TAYYORGARLIK BOSQICHIDA O 'QISH VA YOZUVGA O 'RGATISH." BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI 2.3 (2022): 1-4.
29. Habiba G. BIRINCHI SINIF O 'QUVCHILARIDA YOZUV MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 983-989.
30. Navrozova, M. G. (2021). XALQONA TIBBIY BIRLIKLARDA MANO KOCHISH USULLARI. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 1487-1491.
31. Gaybullaevna, N. M. Etymology of Uzbek Medical Terms. JournalNX, 7(06), 169-171.
32. Navruzova M. G. Lexical-semantical features of some medical linguistic units //Scientific reports of Bukhara State University. – 2021. – Т. 5. – №. 2. – С. 135-142.

33. Gaybullaevna, N. M. (2021). Fundamentals of medical termsformation in uzbek language. Middle European Scientific Bulletin, 12, 488-491.
34. Maxmudovna N. M. et al. AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN BOLALAR SALOMATLIGINI SAQLASHDA FOYDALANISH //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 37-43.
35. M.Nigmatova. МАКТАБГАЧА ТАЛИМДА КОМПЕТЕНТСИЯВИЙ YONDASHUV. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2021. –Т.3. №. 3.- С.2021/6/18.
36. Qosimova M. M., Kasimov A. A. On some typical problems to be solved in primary schools //Academica: an international multidisciplinary research journal. – 2021. – Т. 11. – №. 1. – С. 502-517.
37. Kasimov A. A., Axrorov I. D. The methodical principles of organizing students independent work in mathematics //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 11.
38. Mavlyuda Q. M., Asror K. A. On some typical problems to be solved in primary schools.
39. Fayzullo Q. M. et al. To develop students' skills of nature conservation and respect for human labor by teaching them to solve environmental problems.